



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




**XORAZM VILOYATIDA  
BAJARILGAN QURILISH ISHLARINING  
ASOSIY KO'RSATKICHLARI**

**2024- YIL YANVAR-MART**


## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-mart oylari uchun)

2024-yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida jami 1 215,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 124,8 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʼz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida qurilish ishlari




2024- yilning yanvar-mart oyida hududlar kesimida, xususan, Urganch shahri (306,9 mlrd. soʻm), Urganch tumani (139,4 mlrd. soʻm) va Xiva tumanida (102,0 mlrd. soʻm) qurilish ishlarinining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 66,2 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 122,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 30,7 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 141,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,1 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 71,9 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

## **2024- yilning yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 78,5 %i yoki 954,4 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 166,4 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 98,2 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 370,0 mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 60,1 %ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 418,3 mlrd.so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 43,8 %ni tashkil etdi.

**166,4**  
mlrd. so'm

**370,0**  
mlrd. so'm


**418,3**  
mlrd. so'm

### **Yillar kesimida yangi qurilish ishlarining hajmi va ulushi**



## 2024- yilning yanvar-mart oylarida umumi hajmda yangi qurilish ishlaring ulushi


2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Urganch shahri (235,4 mlrd. so'm), Urganch tumani (103,5 mlrd. so'm), Hazorasp (74,1 mlrd. so'm) va Xiva tumanida (72,2 mlrd. so'm) qayd etildi.



# 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bajarilgan qurilish ishlari hajmi – 1 215,6 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.


Jami qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 13,9 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 7,4 % punktga ko'payidi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % punktga kamayib, 50,6 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,7 % punktga ko'payib, 35,5 %ni tashkil etdi.

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 169,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,7 marta oshgan va ularning umumiy hajmdagi ulushi 7,4 % ga kamayib, 13,9 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘mda



## Jamiga nisbatan ulushi



Urganch shahri.



Urganch tumani




Bog‘ot tumani

*Ma‘lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Urganch shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 60,3 %), Urganch tumanida (9,9 % ) va Bog‘ot tumanida (8,3 %) qayd etildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxona va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi



2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 50,6 %i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni tashkil etgani holda 615,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**123,5 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**100,3 %**

**342,8**  
mlrd. so'm

2020

**110,8 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

**420,9**  
mlrd. so'm

2021



**478,1**  
mlrd. so'm

2022



**548,6**  
mlrd. so'm

2023



**615,2**  
mlrd. so'm

2024




**105,3 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

# 2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘m




## Jamiga nisbatan ulushi



Ma’lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Urganch shahri (166,1 mlrd. so‘m), Xiva tumani (73,1 mlrd. so‘m) va Urganch tumaniga (54,1 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

**Norasmiy sektor tomonidan  
2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish  
ishlarining asosiy ko'rsatkichlari**

**Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi**



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 35,5 %ni yoki 431,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 131,8 %ni tashkil etdi. Shundan 335,3 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 148,8 %ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 83,0 mlrd. so'mni va 92,3 %ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 12,6 mlrd. so'mni va 102,9 % ni tashkil etdi.

Oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**106,5 %**

Oldingi yilning mos  
davriga nisbatan  
**103,4 %**

**169,9**  
mlrd. so'm

**217,1**  
mlrd. so'm

**254,9**  
mlrd. so'm

**296,7**  
mlrd. so'm

**431,0**  
mlrd. so'm

**2020**

**2021**

**2022**

**2023**

**2024**

**102,3 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

**107,3 %**


oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

**131,8 %**

oldingi yilning mos  
davriga nisbatan

# Norasmiy sektor tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘mda



**68,5** mlrd. so‘m  
Urganch tumani



**48,4** mlrd. so‘m  
Hazorasp tumani




**38,8** mlrd. so‘m  
Xonqa tumani

*Ma’lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng katta hajmi Urganch shahrida (38,8 mlrd. so‘m), Xiva tumanida (25,3 mlrd. so‘m), va Urganch tumanida (68,5 mlrd. so‘m) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

yanvar-mart oylarida hajm, mlrd. so'mda



Davlat multkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 140,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat multkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 075,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 11,5 % va 88,5 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat multkchilikidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiylajmining 23,2 %), Xiva tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiylajmining 8,7 %) va Urganch tumanida (ushbu hududdagi umumiylajmining 11,3 %) qayd etildi.

## **USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlari** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi**  
**Tel. 62 224-65-22 (9020)**